Annotatsiya. Raqamli ochiq manba tekshiruvchi zamonaviy jurnalistika, ilmiy tadqiqot va kriminalistikada muhim vositaga aylandi, bu odamlarga yashirin haqiqatlarni ochish va javobgarlikka tortish asos bo'luvchi ma'lumotlarga kirish imkonini beradi. Ushbu maqola raqamli ochiq manbalar tadqiqotining tamoyillari va usullarini o'rganadi, ulardan olingan ma'lumotlarni, faktlarni tekshirish va noto'g'ri ma'lumotlarni fosh qilishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Shuningdek, mazkur maqola maxfiylikni himoya qilish va aniqlikni ta'minlash kabi raqamli ochiq manbalar tadqiqotini o'tkazish bilan bog'liq axloqiy mulohazalar va muammolarni o'rganadi. Keys tadqiqotlari va misollar orqali ushbu maqola murakkab masalalarni yoritishda va ijtimoiy o'zgarishlarni rag'batlantirishda raqamli ochiq manbalar tadqiqotining afzalligini namoyish etadi.

Kalit so'zlar: ochiq manbalar, raqamli kriminalistika, raqamli dalillar, raqamli kriminalistik vositalar, "penetration test"

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I5Y2024N51>

Kirish. Bugungi kunda raqamli qurilmalardan foydalanuvchilar soni keskin oshib bormoqda va ulardan raqamli dalillar to'plash, tergov jarayonini olib borishda foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki insonlarning hayotining bir qismi raqamli dunyoga ko'chgan bo'lib, ushbu dunyo juda katta hajmdagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlarni to'plash, tekshirish, analiz qilish, baholash jarayonini faqatgina inson omili bilan amalga oshirish imkonsiz.

Ushbu maqola raqamli kriminalistika va unda ochiq manbalardan foydalanish bo'yicha nazariy va huquqiy ma'lumotlarni qamrab olib, ulardan amaliyotda foydalanish bo'yicha takliflarni taqdim etadi. Shuning uchun birinchi navbatda, raqamli kriminalistika va raqamli

ochiq manbalar tushunchalarini alohida-alohida o'rganib chiqishimiz lozim. Raqamli kriminalistika raqamli qurilmalardan ma'lumotlarni olish, tekshirish, baholash, o'chirilgan ma'lumotlarni qayta tiklash, kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun raqamli dasturlardan foydalanish kabi jarayonlarni o'z ichiga oluvchi kriminalistikaning bir tarmog'i hisoblanadi. Raqamli kriminalistika doirasida bir nechta kichik sohalar mavjud, jumladan:

- Kompyuter sud ekspertizasi;
- Tarmoq kriminalistikasi;
- Raqamli ma'lumotlarni tahlil qilish;
- Mobil qurilma ma'lumotlari tahlili.[1]

Endi raqamli ochiq manbalarga to'xtalamiz. Raqamli ochiq manba vositalari tushunchasi barcha turdagi ommaviy axborotlar tadqiqoti bilan bog'liqdir. Ushbu tushuncha ilk bor qachon fanda qo'llanilgani haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Biroq, bugungi kunga kelib tushuncha kiberjinoyatlarga qarshi kurash faoliyatida keng qo'llanib kelinmoqda. Qisqa qilib aytganda, raqamli ochiq manbalar barcha uchun ochiq va tekin dastur, ilova, tarmoq, veb-saytlarni o'z ichiga oladi.

Metodologiya. Ushbu maqolada, avvalo, hozirgi texnologiyalar asrida raqamli dunyoning rivojlanib borayotganligi va shu tufayli kiberjinoyatlarning ko'payib borayotganligi ko'rsatilgan. Birinchi navbatda, raqamli kriminalistika tushunchasiga ta'rif keltirilgan. Raqamli kriminalistika katta soha bo'lib, ochiq manbalar raqamli kriminalistikaning bir yo'nalishi sifatida keltirilgan. Raqamli kriminalistika va ochiq manbalar tushunchalarini to'liq anglab yetish uchun xorijiy adabiyotlar va ilmiy maqolalarga murojaat qilingan.

Xorij tajribasini o'rganish ushbu sohalaridagi hamkorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Chet el davlatlarida raqamli dalillar, ochiq manbalar bilan bog'liq qonunchilik o'rganildi. Mazkur maqolada rivojlangan davlatlarda amalda mavjud raqamli kriminalistikaga oid ochiq manbalarning eng ko'p qo'llaniladigan turlari va ularning imkoniyatlari ko'rsatilgan. Topilgan, o'rganilgan ma'lumotlar asosida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga takliflar taqdim etilgan.

Natijalar. Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida raqamli kriminalistikada qo'llaniladigan ochiq manbalarning turlari o'rganildi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar ochiq manbalar orqali raqamli dalillarni to'plashning eng qulay yo'li ekanligi ham aniqlandi. Chunki ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari dunyo aholisining katta qismini tashkil etadi. Raqamli dunyoda jinoyat yoki jinoyatchi haqida ma'lumot to'plashda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish samarali natija beradi. Ulardan eng mashhurlari YouTube, Instagram, TikTok, Spotify, Facebook, WhatsApp va boshqalar. Ushbu ijtimoiy tarmoqlar ochiq kodli ijtimoiy tarmoqlar hisoblanadi va shu tufayli ular orqali ma'lumot to'plash jinoyatni ochishni yanada osonlashtiradi.

Youtube eng katta video kontentli ijtimoiy tarmoq hisoblanib, unga 2005-yil 14-fevralda asos solingan. Bundan tashqari, Facebook ijtimoiy tarmog'i hozirda dunyo bo'yicha eng ko'p foydalaniladigan ijtimoiy tarmoq hisoblanadi. Quyida dunyo bo'ylab eng ko'p foydalaniladigan ijtimoiy tarmoqlar bilan tanishishingiz mumkin:

Facebook — 3.05 mlrd., WhatsApp — 2.78 mlrd., YouTube — 2.49 mlrd., Instagram — 2.04 mlrd., WeChat — 1.32 mlrd., TikTok — 1.22 mlrd., Telegram — 800 million, Snapchat — 750 million, Kuaishou — 673 million, Sina Weibo — 599 million, QQ — 558 million, X (formerly

Twitter) — 550 million, Pinterest — 465 million, Reddit — 430 million, LinkedIn — 424 million, Quora — 300 million.[2]

Ammo, bu ijtimoiy tarmoqlarning hammasi ham ochiq manba hisoblanmaydi. Ammo, eng ko'p foydalanuvchilarga ega Facebook ijtimoiy tarmog'i ochiq manba hisoblanib, raqamli dalillar to'plashda muhim ahamiyatga ega. Chunki Facebook ijtimoiy tarmog'ida mavjud ma'lumotlar orqali guruh bo'lib sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash imkoni mavjud.

Muhokama. Avvalo, ochiq manbalar tushunchasiga to'xtalib o'tamiz. Ochiq manbalar hamma kirish va foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan manbalar hisoblanadi. Ochiq manbalarni istalgan Internet tarmog'i yoki onlayn do'konlardan bepul tarzda yuklab olish mumkin.[3] Ochiq manbalardan foydalanish uchun alohida ruxsat yoki oylik, yillik to'lovni amalga oshirish talab etilmaydi. Hozirgi kunda ushbu manbalarning turlari juda ko'p va imkoniyatlari katta hisoblanadi. Biz doimiy foydalanadigan ijtimoiy tarmoqlar, kompyuter yoki telefonimizda mavjud dasturlar, qidiruv funksiyasiga ega ilovalar ochiq manbalarga misol bo'lishi mumkin. Qisqacha qilib aytganda, ular dasturiy ta'minotdan erkin foydalanish, o'zgartirish va almashish imkonini beruvchi manbalar hisoblanadi.

Quyida raqamli ochiq manbalardan tergov va raqamli dalillarni to'plash uchun (OSINT — Open Source Intelligence) foydalanishning afzalliklari ko'rsatilgan:

- Xavfsizlik: Razvedka ma'lumotlarini to'plash uchun ochiq ma'lumotlardan foydalanish boshqa razvedka shakllariga nisbatan hech qanday xavf tug'dirmaydi. Misol uchun, ayg'oqchi dasturlar, sun'iy yo'ldoshlardan foydalanish yoki ma'lumot to'plash uchun yerdagi inson manbalaridan foydalanish, ayniqsa dushman mamlakatlarda;

- Arzonlik: OSINT manbalari orqali ma'lumotlarini yig'ish boshqa razvedka manbalariga qaraganda ancha arzon. Masalan, ma'lumot to'plash uchun inson manbalaridan yoki ayg'oqchi dasturlardan foydalanish qimmatga tushadi. Razvedka byudjeti cheklangan kichik korxonalar OSINT manbalaridan minimal xarajatlar bilan foydalanishlari mumkin;

- Osonlik bilan kirish imkoni: OSINT manbalari qayerda bo'lishingizdan qat'iy nazar, har doim mavjud va har doim yangilanib turadi. OSINT manbalaridan har qanday razvedka kontekstining turli bosqichlarida foydalanilishi mumkin. Sizga kerak bo'lgan yagona narsa OSINTni to'g'ri yig'ish va tahlil qilish uchun kerakli ko'nikmalar va vositalardir. Masalan, harbiy idoralar ijtimoiy tarmoq saytlarini tahlil qilib borib, kelajakdagi hujumlarni prognoz qilishlari yoki korporatsiyalar undan yangi bozorni kengaytirish strategiyalarini yaratish uchun foydalanishlari mumkin;

- Huquqiy masalalar: OSINT resurslaridan har qanday mualliflik yoki shaxsiy daxlsizlik huquqini buzmasdan foydalanish mumkin chunki bu manbalar allaqachon ommaviy ravishda nashr etilgan. Albatta, "gray literature" manbalaridan foydalanish bilan bog'liq ba'zi cheklovlar mavjud xolos;

- Onlayn firibgarlikka qarshi kurashish: OSINT manbalari soxta mahsulotlar/xizmatlarni topish va huquqni muhofaza qilish organlarini bunday saytlarni yopish yoki foydalanuvchilarga ular bilan ishlashni to'xtatish uchun ogohlantirish yuborishda qo'llanilishi mumkin. Bu ayniqsa, soxta farmatsevtika va sog'liqni saqlash mahsulotlariga qarshi kurashda OSINTning katta afzalligi hisoblanadi;

- Milliy xavfsizlik va siyosiy barqarorlikni saqlash: Bu OSINTning eng muhim afzalliklaridan biri bo'lib, bu hukumatlarga xalqning siyosiy tizimga nisbatan munosabatini

tushunish va kelajakdagi nizolarning oldini olish uchun yordam beradi. Hukumatlar OSINTdan ichki siyosatlarining kelajakdagi strategiyalarini tuzishda foydalanadilar.[4]

Raqamli kriminalistika - bu raqamli shaklda saqlanadigan ma'lumotlarni aniqlash, olish, qayta ishlash, tahlil qilish va hisobot berishga qaratilgan kriminalistika fanining sohasi hisoblanadi.[5] Raqamli kriminalistika jinoiy faoliyatni aniqlash jarayonining tarkibiy qismidir va raqamli dalillar huquqni muhofaza qilish organlari tekshiruvlari uchun juda muhim ahamiyatga ega. Raqamli kriminalistikada identifikatsiya va autentifikatsiya kabi muhim tushunchalar mavjud. Identifikatsiya – foydalanuvchi yoki qurilmani axborot tizimi yoki tarmoqdagi o'ziga xos belgisi – identifikatori orqali aniqlashdir. Buning uchun foydalanuvchi tizim yoki tarmoqqa o'z belgisiini kiritishi kerak. Foydalanuvchi nomi (login), raqamli yoki harf-raqamli kodi, niki (tahallus, laqab), telefon, pasporti, bank kartasi nomerlari, telefon IMEI kodi, tovar shtrix kodi, elektron imzo e-mail, sayt manzili va hokozolar shaxs yoki qurilmaning identifikatorlari sifatida ishtirok etadi.

Autentifikatsiya – raqamli dalillarning haqiqiyligini tekshirish jarayonidir. Autentifikatsiya jarayoni bir, ikki yoki ko'p bosqichli bo'lishi mumkin. Raqamli dalillarni autentifikatsiya qilish natijasida ularning manbasi, jinoyatchi shaxs uchun xos bo'lgan xususiyatlar, ko'nikmalar, jinoyat izlari hamda ish uchun ahamiyatli boshqa holatlarni haqiqatda mavjudligi fakti tasdiqlanadi.[6]

Raqamli dalillarni kompyuterlar, smartfonlar, masofaviy saqlash, uchuvchisiz havo qurilmalari (dronlar), kema uskunalari va boshqalar kabi keng manbalardan to'plash mumkin. Raqamli kriminalistikaning asosiy maqsadi raqamli qurilmalardan ma'lumotlarni olish, ularni qayta ishlash va jinoiy javobgarlikka tortish uchun xulosalarni taqdim etishdan iborat. Elektron dalil esa – elektron qurilmada saqlanadigan yoki o'tkaziladigan, tergov uchun qimmatli axborot va ma'lumotdir.[7]

Kompyuter-texnik ekspertizasi buzilgan server, drayvlar yoki formatlangan operatsion tizimlardan ma'lumotlarni to'playdi va ularni sudga qonuniy shaklda taqdim etish uchun tahlil qiladi. Bu holatda, to'plangan ma'lumotlar tekshiriladi va raqamli dalil sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lganlari ajratib olinadi.

Autopsy. Autopsy dasturi raqamli qurilmalar va fayl tizimlarini chuqur tekshirish uchun foydalaniladigan raqamli kriminalistik vosita hisoblanadi. Autopsy yordamida o'chirilgan fayllarni tiklash, veb-sahifalarga, fayllarga kirish, ma'lumotlarni tahlil qilish orqali kompyuterda nima sodir bo'lganligini tekshirish imkoni mavjud. Autopsy eng aniq natijalarni taqdim etadi va tergovchilargaga eng yaxshi harakat yo'nalishini tuzishga yordam beradi. Raqamli kriminalistika, odatda, uchta asosiy bosqichdan iborat:

- **Ma'lumotlar yig'ish.** Raqamli shaklda olingan ma'lumotlar qurilmada yaxlit holda saqlanishi kerak. Ma'lumotlarni to'plash raqamli qurilmalarda bajarilgan amallarni aniqlashga yordam beradi. Tergovchilar tasvirlar, fayllar, audio yozuvlarning asl va ko'chirma nusxalarini xavfsiz saqlashlari lozim.

- **Chuqur tahlil.** Ma'lumotlar olingandan so'ng ular batafsil tahlil qilinadi va jinoyatga aloqador ma'lumotlar tekshirib mutaxassislar tomonidan tahlil qilinadi. Autopsy ma'lumotlarni oladi, har bir jihatni tahlil qiladi va 100% aniq natijalar beradi.

- **Taqdimot.** Keyinchalik ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida olingan kuzatishlar qonuniy shaklda qayd etiladi. Bu kuzatuvlarning barchasi sudda taqdim etilishi uchun hisobot shaklida tayyorlab beriladi.[8]

The Sleuth Kit. The Sleuth Kit® (TSK) diskdagi tasvirlarni tekshirish imkonini beruvchi vositalar to'plamidir. TSK ning asosiy funksiyasi hajmi katta fayl ma'lumotlarini tahlil qilish imkonini beradi.

The Sleuth Kit to'plami tergov jarayonini soddalashtirish uchun mo'ljallangan alohida xususiyatlari bilan boshqa raqamli ochiq manbali vositalaridan ajralib turadi. Uning asosiy afzalliklaridan ba'zilari quyidagilar:

- **Jamoaviy ishlash imkoni:** Raqamli kriminalistikaning murakkab tarmog'ida hamkorlik muhim ahamiyatga ega. The Sleuth Kit to'plami ko'plab foydalanuvchilarga bir vaqtda kirish va foydalanish imkonini beradi. Bu esa jamoalarga bir vaqtning o'zida katta hajmli ishlar ustida ishlashga yordam beradi. Bu xususiyat hamkorlikda ishlash va ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi. Jamoaviy ishlash imkoni ma'lumotlarning aniqligini, ishonchligini kafolatlaydi;

- **Vaqtning tejashi:** Raqamli tergovda vaqt jadvalini yaratish muhim ahamiyatga ega. The Sleuth Kit foydalanuvchilarga harakatlar ketma-ketligini aniqlab, zararli harakatlar yoki ruxsatsiz kirishni aniqlashga yordam beradi;

- **Kengaytirilgan fayl tizimi tahlili:** The Sleuth Kit to'plami fayl tizimi turlarini osongina boshqarishi mumkin va bu fayl tizimlariga to'g'ridan to'g'ri kirish imkonini beradi. Keng ko'lamliligi tahlil qilish imkoniyatlari tufayli o'chirilgan fayllar va yashirin ma'lumotlar dasturiy ta'minot yordamida tiklanishi va joylashtirilishi osonlashadi;

- **Kuchli qidiruv imkoniyatlari:** The Sleuth Kit yordamida katta ma'lumotlar bazalarida ma'lum fayl turlari, iboralar yoki artifaktlarni qidirish imkoniyati oshadi. Ushbu dastur yordamida kalit so'zlar va identifikatsion ma'lumotlar yordamida juda katta hajmdagi axborotlarni olish mumkin.[9]

Wireshark. Wireshark bepul va raqamli ochiq manbali kriminalistik vosita hisoblanadi. U tarmoq muammolarini bartaraf etish, tahlil qilish, dasturiy ta'minot va aloqa protokollarini ishlab chiqish va ta'lim uchun ishlatiladi. Dastlab, Ethereal deb nomlangan loyiha 2006-yil may oyida savdo belgisi bilan bog'liq muammolar tufayli Wireshark deb o'zgartirilgan.

Wireshark keng foydalaniladigan raqamli ochiq manbali tarmoq analizatori bo'lib, u tarmoq muammolarini bartaraf etish, tarmoq protokollarini tahlil qilish va tarmoq xavfsizligini ta'minlash imkonini beradi.

Quyida Wireshark ning asosiy xususiyatlari keltirilgan:

- **Packet Capture (PCAP).** Tarmoq trafigining odamlar o'qiy oladigan formatga aylantiradi va olingan ma'lumotlar tahlil qilish va keyin yuklab olish, arxivlash yoki o'chirish uchun ma'lum vaqt davomida saqlanadi;[10]

- **Haqiqiy vaqt tahlili.** Tarmoq trafigining jonli ko'rinishini ta'minlaydi va joriy tarmoq faoliyati haqida darhol ma'lumot beradi;

- **Filtrlash imkoniyatlari.** Foydalanuvchilarga tarmoq trafigining muayyan turlariga e'tibor qaratish imkonini beradi, tahlil doirasini kengaytirishga yordam beradi;

- **Grafik foydalanuvchi interfeysi (GUI).** U foydalanishni qulaylashtirish uchun mo'ljallangan, yangi boshlovchilar ham, mutaxassislar ham ma'lumotlarni samarali boshqarishi va tahlil qilishini ta'minlaydi.[11]

Dumpzilla. Dumpzilla Mozilla brauzerlarining raqamli kriminalistika tahliliga bag'ishlangan juda foydali, ko'p qirrali va intuitiv vositasi hisoblanadi. Dumpzilla hujumlar,

parollar va elektron pochta xabarlarini tahlil qilish uchun Firefox, Iceweasel va Seamonkey brauzerlaridan barcha tegishli ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega.

Ilova buyruq satri ostida ishlaydi va biz juda ko'p ma'lumotlarga kira olishimiz mumkin. Quyida ulardan ba'zilari keltirilgan:

- Cookie fayllari, DOM xotirasi (HTML 5);
- Foydalanuvchi sozlamalari (domenlar, proksi sozlamalari);
- Yuklab olish tarixi;
- Veb-saytlar ma'lumotlari (qidiruvlar, elektron pochta xabarlar, sharhlar va boshqalar);
- Brauzerda saqlangan parollar.[12]

EXIF. EXIF (Exchangeable image file format) dasturi fotosuratlarini tahlil qiladi va ularda mavjud ma'lumotlarni taqdim etadi. Deyarli barcha raqamli kameralar har safar yangi rasm olganingizda ushbu ma'lumotlar fayllarini yaratadi. EXIF tasvirning o'zi haqidagi barcha metama'lumotlarni o'z ichiga oladi, masalan, ekspozitsiya darajasi, siz suratga olgan joy va har qanday sozlamalar.

Suratlar biror bir ma'lumotni yashirish uchun juda qulay joy hisoblanadi. Maxfiy ma'lumotlarni suratlar orqali uzatish jinoyat olamida juda keng tarqalgan usullardan biri hisoblanadi. EXIF dasturi aynan shunday ma'lumotlari bizga osonlik bilan aniqlab berishi mumkin. Suratni tahlil qilish jarayonida EXIF dasturi bizga u haqidagi barcha ma'lumotlarni ochib beradi. Shuningdek, yashirilgan ma'lumot ham ko'rsatiladi.

Access Data. Access Data - bu katta hajmdagi ma'lumotlarni tartibga solish va kuzatishda yordam beradigan kuchli ma'lumotlar bazasi ilovasi.[13] Bundan tashqari, Access Data dasturi ham fayllarni tahlil qilish imkonini beradi. Access Data Microsoft operatsion tizimi doirasida 1992-yil noyabrda ishlab chiqilgan katta hajmdagi ma'lumotlarni tartibga solish va kuzatishda yordam beradigan kuchli ma'lumotlar bazasi ilovasi hisoblanadi. Access Data bizga raqamli qurilmadagi ma'lumotlarni saralab, biz bajargan harakatlar, berilgan buyruqlarni ko'rsatib beradi. Access Data orqali istalgan faylga oid bajarilgan harakatlarning aniq ketma-ketligini aniqlashimiz mumkin.

EnCase. EnCase an'anaviy ravishda raqamli kriminalistikada dalillarni tiklash uchun ishlatiladi. Bu tergovchiga hujjatlar, rasmlar, internet tarixi va Windows Registry ma'lumotlari kabi dalillarni to'plash uchun foydalaniluvchi fayllarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. EnCase orqali fayl tizimlarini va tegishli artifaktlarni tekshirish mumkin. EnCase foydalanuvchilarga noaniq artifaktlarni tahlil qilishni avtomatlashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, ushbu dastur orqali kodlangan, shifrlangan ma'lumotlarni o'qish, ularni hamma uchun tushunarli tilga tarjima qilish imkoni mavjud.

FTK. FTK Imager (Forensic Toolkit) - dastlabki dalillarga o'zgartirishlar kiritmasdan ularning nusxalarini yaratish orqali ishonchli tarzda ma'lumotlarni (dalillarni) olish uchun ishlatiladigan vosita hisoblanadi. U tasvirlarni bir faylda yoki keyinchalik qayta tiklanishi mumkin bo'lgan segmentlarda saqlaydi. U MD5 hash qiymatlarini hisoblab chiqadi va fayllarni yopishdan oldin ma'lumotlarning yaxlitligini tasdiqlaydi.

Redline. Redline - bu foydalanuvchilarga xotira va fayllarni tahlil qilish va tahdidlarni baholash profilini ishlab chiqish orqali zararli dasturlar belgilarini topish imkoniyatlarini taqdim etadigan vosita hisoblanadi.

Redline xotiradan, fayl tizimi metama'lumotlaridan, ro'yxatga olish ma'lumotlaridan, jurnallaridan, tarmoq ma'lumotlaridan va veb-saytlar xotirasidan dalillarni olish va tekshirishda yordam berishi mumkin.[14]

Nmap. Nmap (Network Mapper) - tarmoqni skanerlash vositasi bo'lib, tarmoqni o'rganish, xostni topish va xavfsizlikni tekshirish uchun ishlatiladi. Gordon Lyon (taxallusi Fyodor Vaskovich) uni butun tarmoqni osongina xaritalash va uning ochiq portlari va xizmatlarini topishga yordam berish uchun yaratgan. Har bir faol IP manzilini skanerlab, buzilgan har bir IP manzili haqida batafsil ma'lumot olish mumkin. Nmap sizga qonuniy xizmat yoki tashqi xaker IP manzilingizdan foydalanayotganini ko'rsatib berishi mumkin. Siz butun tarmog'ingiz haqida ma'lumot olishingiz mumkin, jumladan, jonli xostlar va ochiq portlar ro'yxati hamda har bir ulangan qurilmaning operatsion tizimi. Shu sababli, Nmap sizning tizimingizni kuzatishda va "penetration test" o'tkazishda yordam berishda juda yaxshi yordamchi bo'ladi. Bundan tashqari, Nmap serverdagi zaifliklarni aniqlashga ham yordam beradi. Shaxsiy va biznes veb-saytlarini himoya qilish uchun veb-serveringizni har qanday xavfsizlik bo'shliqlarini aniqlash uchun ushbu vositadan foydalanishingiz mumkin. Nmap zararli dasturlar orqali veb-saytingizga hujum qilish uchun foydalaniladigan jarayonni simulyatsiya qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, Nmap Zenmap deb nomlanuvchi grafik foydalanuvchi interfeysiga ega. Siz undan tarmog'ingizning vizual xaritalarini yaratish uchun foydalanishingiz mumkin. Tizim va zaifliklarni skanerlashni avtomatlashtirish imkoniyati ham ushbu dasturning afzalligi hisoblanadi. Nmap "Nmap Scripting Engine" (NSE) deb nomlanuvchi ajoyib xususiyatga ega. Bu oldindan belgilangan skriptlar to'plamidan foydalanish va tarmoq tahlilini avtomatlashtirish imkonini beruvchi skriptlash mexanizmi hisoblanadi. Nmap korporativ miqyosdagi tarmoqlar uchun ishlab chiqilgan bo'lsa-da, kichik kompaniyalar ulangan qurilmalarni skanerlash uchun ushbu vositadan foydalanmoqda. Ayniqsa, IoTlarda yuqori darajadagi ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun Nmap vositasidan foydalanish mumkin.[15]

Bundan tashqari, Maltego, Shodan, SpiderFoot, Google Dorks, TheHarvester, Metagoofil, Censys, Datasplloit, VirusTotal, Snort, Nikto, Sublist3r, Creepy, Volatility, Hunchly, Ghireo kabi raqamli kriminalistik vositalar ham mavjud.[16]

Xulosa. Ushbu maqolada raqamli kriminalistika, raqamli dalillar va ochiq manbalar haqida ma'lumotlar taqdim etildi. Raqamli kriminalistikada raqamli ochiq manbalardan foydalanishning afzalliklari, raqamli kriminalistikada foydalaniladigan ochiq manbalarning turlari, ulardan foydalanish usullari ko'rib chiqildi.

Raqamli ochiq manbalar tadqiqotlari raqamli qurilmalardan ma'lumotlarni olish, tekshirish va baholashda muhim rol o'ynaydi. Raqamli izlar, ijtimoiy media tendentsiyalari va onlayn kontentni tahlil qilish orqali tergovchilar dezinformatsiya, soxta yangiliklarni va jamoatchilikni aldashga qaratilgan manipulyatsiya taktikalarini aniqlashlari mumkin. Chuqur tahlil va raqamli dalillarga asoslangan holda tergovchilar yolg'on xabarlarini aniqlashlari mumkin.

Biroq, raqamli ochiq manba tekshiruvlarini o'tkazish maxfiylik va axloqiy mulohazalar bilan bog'liq qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Maxfiylik masalalari muhim ahamiyatga ega, chunki tergovchilar jamoat manfaatlarini ko'zlab ma'lumotni ochish va shaxslarning shaxsiy daxlsizlik huquqlarini hurmat qilish o'rtasidagi muvozanatni saqlashlari lozim. Bundan tashqari, dalillarning aniqligi va ishonchliligini ta'minlash noto'g'ri ma'lumotlar tarqalishining

oldini olish va tergov ishining ishonchliligini himoya qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun ochiq manbalardagi ma'lumotlar doimo tekshirib borilishi va boshqa manbalar bilan solishtirib borilishi mumkin. Raqamli dalillarni baholashda qonunni qo'llovchi dastlab, ularni to'plash, saqlash, tekshirish va transportirovaka qilishdahuquqiy, texnik va axloqiy normalariga rioya etilganini tekshirishi zarur.[17]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, raqamli ochiq manbalar tadqiqoti ma'lumotni tekshirish va soxta xabarlariga qarshi kurashishga yordam beradi. Axloqiy me'yorlarga rioya qilish, ilg'or texnologiyalardan foydalanish va turli manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish orqali raqamli ochiq manbalar tergovchilarga shaffoflikni va adolatni ta'minlash, jinoyat ishlarini ochishda vaqtni tejash imkonini beradi. Shuning uchun, avvalo, raqamli ochiq manbalardan foydalanish bo'yicha nazariy qo'llanmalarni ishlab chiqish va ular asosida tergovchilarni maxsus kurslarda o'qitish mumkin. Bundan tashqari, raqamli dalillarni to'plash bo'yicha jinoyat-protsessual huquqiga normalar kiritish va raqamli ochiq manbalardan foydalanishni ushbu normalarga qo'shish lozim. Shu bilan birga, ochiq manbalardan to'plangan ma'lumotlarning hajmi kattaligi tufayli ularni tahlil qilishda sun'iy intellektdan foydalanish mumkin. Shuningdek, ochiq manbalardan ma'lumot to'plash, onlayn kontentni tahlil qilish uchun maxsus tashkilot tashkil etilishi lozim.

Адабиётлар/Литература/References:

1. "What is Digital Forensics" March 6, 2024 <https://www.eccouncil.org/cybersecurity-exchange/computer-forensics/what-is-digital-forensics/>;
2. Tamilore Oladipo "23 Top Social Media Sites to Consider for Your Brand in 2024" 2 Apr 24, 2024 <https://buffer.com/library/social-media-sites/>;
3. What is open source? <https://opensource.com/resources/what-open-source>;
4. What is open source? October 24, 2019 <https://www.redhat.com/en/topics/open-source/what-is-open-source>;
5. Digital forensics <https://www.interpol.int/en/How-we-work/Innovation/Digital-forensics>;
6. Istam ASTANOV, Bakhtiyor KHAMIDOV Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquqi va sud ekspertizasi. Elektron yohud raqamli dalillarga oid umumnazariy masalalar: muammo va yechim <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>;
7. Karimov B.Z. Raqamli dalillar kategoriyasining ilmiy-nazariy masalalari. Ilmiy maqola –Т.: TDYU Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук –Review of Law Sciences. 5 (2020) –B. 168. (B. 168–172);
8. What is Autopsy in Cyber Security? Features, Benefits & Use Cases. December 6, 2023 <https://www.ccslearningacademy.com/what-is-autopsy-in-cybersecurity>;
9. Sleuth Kit: Premier Digital Forensics Suite. 2023-11-23 <https://www.salvationdata.com/knowledge/sleuth-kit/>;
10. "Packet Capture" <https://www.thousandeyes.com/learning/glossary/packet-capture>;
11. Katie Terrell Hanna "Wireshark" <https://www.techtarget.com/whatis/definition/Wireshark>;
12. Firefox Forensics in Python with dumpzilla <https://www.oreilly.com/library/view/mastering-python-for/9781788992510>;

13. Eshna Verma "How to Use Microsoft Access and Its Key Benefits" Mar 15, 2023 <https://www.simplilearn.com/how-to-use-microsoft-access-business-productivity-tool-easy-guide-article;>
14. EnCase Forensic Suite [https://e-forensic.ca/products/encase-forensic-suite/;](https://e-forensic.ca/products/encase-forensic-suite/)
15. Kaushik Sen How to Use Nmap Jul 04, 2023 <https://www.upguard.com/blog/how-to-use-nmap;>
16. Paulo Gardini Miguel "Top 24 Digital Forensics Software Of 2024" Jan 4, 2024 [https://thectoclub.com/tools/best-digital-forensics-software/;](https://thectoclub.com/tools/best-digital-forensics-software/)
17. Хамидов В. Raqamli ekspertiza natijalarini tekshirish va baholash //Общество и инновации. –2021. –Т. 2. –№. 3. –С. 91–97

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 5 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).